



QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ -5113- son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-avgust)

60,6%



Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ulushi

4068,9
ming so'm




Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi

65,4%




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-sentabr holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-avgust)



Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

61,4% (1- sentabr holatiga ko'ra) 2024



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

2020



52,8%

Soni, birlikda

2024

15271

2023

16710

2022

18940

2021

16391

2020

12171

Soni, birlikda

2024

1910

2023

2388

2022

3350

2021

3829

2020

1723

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-avgust)

2024

58,2%



Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi

2020



51,5%


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-avgust)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar-avgust)



¹⁾ Bu yerda va keyingi o'rinlarda 2020-2023-yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-avgust oylarida)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Qashqadaryo viloyati¹⁾	14556,1	100,0	111,8
Qarshi shahar	4153,2	28,5	119,0
Shahrisabz tumani	709,4	4,9	110,3
G'uzor tumani	596,0	4,1	109,0
Dehqonobod tumani	432,8	3,0	109,2
Qamashi tumani	778,0	5,3	108,1
Qarshi tumani	882,4	6,1	111,2
Koson tumani	954,2	6,5	109,4
Kitob tumani	931,9	6,4	110,0
Mirishkor tumani	641,2	4,4	108,3
Muborak tumani	931,9	6,4	110,2
Nishon tumani	535,3	3,7	108,7
Kasbi tumani	634,4	4,4	106,9
Ko'kdala tumani	233,6	1,6	108,5
Chiroqchi tumani	539,3	3,7	109,0
Shahrisabz tumani	843,3	5,8	109,2
Yakkabog' tumani	759,2	5,2	108,0

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2024- yil yanvar-avgust oylarida)




Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-avgust oylarida)

Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Yakkabog' tumani	2675,2	105,8 %
Shahrisabz tumani	3576,3	107,3 %
Chiroqchi tumani	2002,7	106,1 %
Ko'kdala tumani	1230,2	105,4 %
Kasbi tumani	2964,3	104,6 %
Nishon tumani	3195,7	106,1 %
Muborak tumani	9935,5	108,2 %
Mirishkor tumani	4928,8	105,9 %
Kitob tumani	3291,8	107,7 %
Koson tumani	3042,8	106,9 %
Qarshi tumani	3222,9	108,4 %
Qamashi tumani	2641,7	105,8 %
Dehqonobod tumani	2699,7	107,0 %
G'uzor tumani	2668,9	106,6 %
Shahrisabz shahar	4799,5	108,3 %
Qarshi shahar	13 993,3	116,5 %

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2024- yil yanvar –avgust oylarida)

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **65,4** foizni, shu jumladan, **9524,4** mlrd so'm hajmni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalar tashkil etdi.



Hajmi, mlrd. so'mda

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-avgust oylarida)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi, %
Yakkabog' tumani	602,2	+12,5 %
Shahrisabz tumani	627,7	+12,6 %
Chiroqchi tumani	414,1	+13,1 %
Ko'kdala tumani	189,2	+13,8 %
Kasbi tumani	505,1	+11,8 %
Nishon tumani	415,7	+12,9 %
Muborak tumani	604,2	+12,4 %
Mirishkor tumani	542,2	+11,7 %
Kitob tumani	764,1	+13,4 %
Koson tumani	774,0	+16,3 %
Qarshi tumani	668,8	+12,3 %
Qamashi tumani	648,5	+11,4 %
Dehqonobod tumani	324,2	+12,2 %
G'uzor tumani	404,7	+12,5 %
Shahrisabz shahar	370,8	+15,6 %
Qarshi shahar	1668,9	+25,1 %

Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi


Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-avgust)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	14556,1	100,0	111,8
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	732,2	5,0	115,2
Moliyaviy xizmatlar	2 765,8	19,0	122,8
Transport xizmatlari	2 743,0	18,8	107,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 562,4	17,6	109,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	451,6	3,1	106,3
Savdo xizmatlari	4 394,8	30,2	109,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	347,0	2,4	111,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	678,5	4,7	121,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	229,5	1,6	111,5
Ijara xizmatlari	332,3	2,3	101,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	572,7	3,9	112,3
Shaxsiy xizmatlar	559,3	3,8	107,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	197,1	1,4	116,2
Boshqa xizmatlar	552,3	3,8	102,9

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(2024- yil yanvar-avgust oylarida)



■ Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sish sur'ati

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar-avgust oylarida)


Qarshi shahar	1450,2	+36,7%
Shahrisabz shahar	205,1	+19,3%
G'uzor tumani	75,6	+21,4%
Dehqonobod tumani	49,9	+7,8%
Qamashi tumnai	73,8	+5,7%
Qarshi tumani	72,4	+7,5%
Koson tumani	89,3	+12,7%
Kitob tumani	116,2	+6,9%
Mirishkor tumani	65,1	+7,6%
Muborak tumani	152,9	+5,4%
Nishon tumani	47,4	+5,6%
Kasbi tumani	55,1	+9,9%
Ko'kdala tumani	14,2	+8,6%
Chiroqchi tumani	62,0	+5,1%
Shahrisabz tumani	164,4	+4,4%
Yakkabog'tumani	72,3	+25,1%

— Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sishi

Moliyaviy xizmatlar tarkibi


(2024- yil yanvar-avgust oylarida)



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **52,4** foizni yoki **1450,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2023- yilning yanvar-avgust** oylariga nisbatan Qarshi shahrida yuqori o'sish sur'ati **136,7** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (2024- yil yanvar-avgust oylarida)

2024-yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **83,0** foizni tashkil etdi.



Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda
Qarshi shahar	720,8
Shahrisabz shahar	138,3
G'uzor tumani	164,9
Dehqonobod tumani	106,9
Qamashi tumani	309,1
Qarshi tumani	319,1
Koson tumani	408,0
Kitob tumani	396,0
Mirishkor tumani	223,9
Muborak tumani	304,9
Nishon tumani	150,3
Kasbi tumani	285,0
Ko'kdala tumani	69,4
Chiroqchi tumani	233,2
Shahrisabz tumani	246,3
Yakkabog' tumani	318,6

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati

● +14,2 %
● +5,6%
● +1,6 %
● +5,3 %
● +11,9 %
● +9,5 %
● +11,4 %
● +12,4 %
● +9,3 %
● +5,5 %
● +9,6 %
● +7,9 %
● +6,6 %
● +12,1 %
● +9,7 %
● +3,2 %

Hududlar kesimida savdo xizmatlari
(2024- yil yanvar-avgust oylarida)




Savdo xizmatlari umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **16,4** foizni yoki **720,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2023- yil yanvar-avgust** oyiga nisbatan Qashqadaryo viloyatida **114,2** % yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **93,4** foiz.

Qarshi shahrida transport xizmatlari hajmi **504,8** mlrd. So'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **106,2** foizni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-avgust oylarida)

Yakkabog' tumani	166,6	+6,4%
Shahrisabz tumani	230,8	+12,2%
Chiroqchi tumani	92,1	+3,8%
Ko'kdala tumani	47,6	+5,9%
Kasbi tumani	133,8	+1,1%
Nishon tumani	133,3	+7,2%
Muborak tumani	176,7	+12,6%
Mirishkor tumani	201,6	+5,2%
Kitob tumani	180,0	+10,7%
Koson tumani	236,2	+8,8%
Qarshi tumani	199,0	+2,4%
Qamashi tumani	157,3	+3,3%
Dehqonobod tumani	92,0	+11,8%
G'uzor tumani	119,6	+10,0%
Shahrisabz shahar	71,4	+1,6%
Qarshi shahar	504,8	+6,2%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi.

2024- yilning yanvar-avgust oyiga ularning ulushi **92,5** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(2024-yil yanvar-avgust oylarida)



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-avgust oylarida)

Yakkabog' tumani	50,6	+25,4%
Shahrisabz tumani	38,7	+18,1%
Chiroqchi tumani	46,2	+14,2%
Ko'kdala tumani	28,2	+14,8%
Kasbi tumani	36,0	+12,2%
Nishon tumani	29,9	+6,2%
Muborak tumani	22,6	+23,1 %
Mirishkor tumani	25,3	+6,6%
Kitob tumani	51,3	+5,2%
Koson tumani	52,1	+5,5%
Qarshi tuman	47,9	+12,3%
Qamashi tumani	47,3	+9,9%
Dehqonobod tumani	28,3	+7,2%
G'uzor tumani	36,7	+4,8%
Shahrisabz shahar	48,5	+24,6%
Qarshi shahar	142,6	+28,4%


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd.so'mda

● O'sish

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(2024-yil yanvar-avgust oylarida)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yilning yanvar-avgust** oyida ulushi **4,7** foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024-yil yanvar-avgust oylarida)



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (2024-yil yanvar-avgust oylarida)

2024-yilning yanvar-avgust oyida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi **1,6** foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-avgust oylarida)

Yakkabog' tumani	7,5	+8,9%
Shahrisabz tumani	13,3	+12,7%
Chiroqchi tumani	4,0	+7,2%
Ko'kdala tumani	3,8	+8,0%
Kasbi tumani	6,1	+6,1%
Nishon tumani	6,0	+11,7%
Muborak tumani	14,1	+48,9%
Mirishkor tumani	5,7	+9,8%
Kitob tumani	24,5	+7,2%
Koson tumani	4,0	+15,7%
Qarshi tumani	4,8	+8,8%
Qamashi tumani	4,9	+7,8%
Dehqonobod tumani	5,5	+11,0%
G'uzor tumani	3,5	+8,0%
Shahrisabz shahar	14,5	+6,5%
Qarshi shahar	107,5	+10,6%

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(2024-yil yanvar-avgust oylarida)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar 97,7 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024-yil yanvar-avgust oylarida)

Qarshi shahar	86,1	+13,4 %
Shahrisabz shahar	24,6	+12,2 %
G'uzor tumani	27,8	+56,9 %
Dehqonobod tumani	14,1	+4,9 %
Qamashi tumani	19,0	+8,6 %
Qarshi tumani	15,2	+5,2 %
Koson tumani	20,9	+8,2 %
Kitob tumani	17,5	+6,4 %
Mirishkor tumani	11,4	+6,6 %
Muborak tumani	15,4	+7,4 %
Nishon tumani	28,4	+8,0 %
Kasbi tumani	9,7	+3,4 %
Ko'kdala tumani	7,0	+6,6 %
Chiroqchi tumani	14,7	+17,7 %
Shahrisabz tumani	22,3	+3,4 %
Yakkabog' tumani	12,8	+6,7 %


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

● O'sishi

2024- yilning yanvar-avgust oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **92,0 foiz**.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (2024-yil yanvar-avgust oylarida)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024-yil yanvar-avgust oylarida)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi
Qarshi shahar	177,4	+1,1%
Shahrisabz shahar	26,2	+23,6%
G'uzor tumani	16,1	+4,3%
Dehqonobod tumani	9,0	+6,8%
Qamashi tumani	9,5	+6,0%
Qarshi tumani	14,3	+6,1%
Koson tumani	12,6	+7,4%
Kitob tumani	21,1	+10,2%
Mirishkor tumani	10,4	+7,1%
Muborak tumani	38,6	+47,7%
Nishon tumani	55,8	+0,7%
Kasbi tumani	15,2	+6,3%
Ko'kdala tumani	10,6	+6,7%
Chiroqchi tumani	10,1	+9,6%
Shahrisabz tumani	12,3	+6,1%
Yakkabog' tumani	12,4	+8,9%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlangan hajmlarni hisobga olgan holda

 Hajmi, mlrd. so'mda

 O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(2024-yil yanvar-avgust oylarida)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-avgust oyida, mlrd. so'mda)

Qarshi shahar	48,4	◆
Shahrisabz shahar	11,6	◆
G'uzor tumani	24,5	◆
Dehqonobod tumani	24,7	◆
Qamashi tumani	31,0	◆
Qarshi tumani	28,3	◆
Koson tumani	24,2	◆
Kitob tumani	24,0	◆
Mirishkor tumani	16,4	◆
Muborak tumani	11,3	◆
Nishon tumani	14,3	◆
Kasbi tumani	15,3	◆
Ko'kdala tumani	10,5	◆
Chiroqchi tumani	9,0	◆
Shahrisabz tumani	18,7	◆
Yakkabog' tumani	20,0	◆

2020- yilning yanvar-avgustiga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **168,9** mlrd. so'mga oshib, **332,3** mlrd. so'mga yetdi.


Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024-yilning yanvar-avgust** oyida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **93,4** foizni tashkil etdi.



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(2024-yil yanvar-avgust oylarida)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 20,9 foizini tashkil etadi.


Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024-yil yanvar-avgust oylarida)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish
Qarshi shahar	89,6	+11,1%
Shahrisabz shahar	36,4	+17,1 %
G'uzor tumani	37,7	+12,4 %
Dehqonobod tumani	35,6	+11,8 %
Qamashi tumani	41,8	+13,5 %
Qarshi tumani	40,1	+11,8 %
Koson tumani	33,5	+13,3 %
Kitob tumani	33,3	+13,2 %
Mirishkor tumani	21,1	+12,3 %
Muborak tumani	33,1	+13,6 %
Nishon tumani	26,7	+14,0 %
Kasbi tumani	43,9	+9,8 %
Ko'kdala tumani	21,6	+5,8 %
Chiroqchi tumani	17,0	+12,4 %
Shahrisabz tumani	35,6	+11,6 %
Yakkabog' tumani	25,7	+13,9 %

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda O'sish

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (2024-yil yanvar-avgust oylarida)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-avgust oylarida, mlrd. so'mda)



2020-yilning yanvar-avgustiga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **117,0** mlrd. so'mga oshib, **197,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **75,9** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Huquq va buxgalteriya sohasidagi xizmatlar hajmi – bu huquq sohasidagi bozor xizmatlaridan, mijozlarga ularning qonuniy huquq va majburiyatlari hamda boshqa huquqiy xizmatlar bo'yicha maslahat berishdan, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritishdan, buxgalterlik hisobi va audit, soliq deklaratsiyalarini tayyorlashdan olingan daromadlar miqdori demakdir.

Yuridik xizmatlar hajmi fuqarolik, jinoiy ishlarda, mehnat tortishuvlarida maslahat xizmati ko'rsatish va vakillik qilishni, shuningdek, yuridik hujjatlarni tayyorlash, sud ijrochilari, hakamlik sudyalari, inspektorlar va sudyalarning xizmatlari, sudlarda va boshqa sud organlarida advokatlar kollegiyasining a'zolari bo'lgan yoki ularning nazorati ostidagi shaxslar tomonidan yuridik vakillik va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari narxini o'z ichiga oladi.